
Navbatdagi sayyor qabulda 20 nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal etildi

Bugun Farg'ona shahar hokimligi tomonidan 3-sonli musiqa va san'at maktabida jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Qabul jarayonida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari va hokim o'rinbosarlari ham ishtirok etishdi. Qabul davomida 80 nafarga yaqin jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar, mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. 20 ga yaqin jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ijobiy hal qilindi. Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha belgilangan tartibda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida fuqarolarning murojaatlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi. Murojaatlarga befarq bo'layotgan rahbarlarga ogohlantirish berildi. Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-09 18:39:23